

Tailandga parvoz qilayotgan yo'lovchilar uchun muhim xabar

2026 2 Sentabr

2026-yil 15-sentyabrdan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun Tailand Qirolligiga kirish qoidalarini o'zgaradi.

2026-yil 14-sentyabr (shu kun ham kiradi) sanasigacha 60 kunlik vizasiz rejim amal qiladi.

2026-yil 15-sentyabrdan mamlakatga vizasiz kirish qoidasi, shuningdek, yetib kelgach viza olish (Visa on Arrival) imkoniyati bekor qilinadi.

Endilikda O'zbekiston fuqarolari Tailandga sayyoh sifatida kirish uchun vizani oldindan rasmiylashtirishi kerak bo'ladi.

HY531 aviaqatnovi yo'lovchilari diqqatiga: Toshkentdan uchish 14-sentyabr kuni amalga oshiriladi, ammo Bangkokka yetib borish 15-sentyabrga rejalashtirilgan – shu bois ushbu aviaqatnov yo'lovchilari yangi viza talablariga duch keladi.

Vizaga arizani parvozdan oldin, jumladan, thaievisa.go.th rasmiy tizimi orqali topshirish mumkin. E'tibor bering, saytda yig'implarni onlayn to'lash ko'zda tutilmagan. To'lov Tailand Qirolligining eng yaqin konsulligida AQSH dollarida (USD) amalga oshiriladi.

Aviaqatnovga ro'yxatdan o'tish yoki mamlakatga kirish rad etilishining oldini olish uchun sayohatlarni rejalashtirish va aviachiptalarni xarid qilishda ushbu o'zgarishlarni albatta inobatga olishingizni so'raymiz. Uzbekistan Airways bilan maroqli parvozlar tilaymiz!